

**SOLIQLAR VA O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

Abduazim Mutalov – “ISFT” Instituti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuchli iqtisodiy potentsialga ega bo’lgan O’zbekistonda rivojlanishga moliyaviy asos yaratuvchi soliqlarning byudjet daromadlarida ulushining pasayib borishining sabablari va bu soxada amalga oshirilish lozim bo’lgan muammolarni yechishning muhim yo’llari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Byudjet, biznes, kriteriy, byudjet, soliqlar, yalpi ichki maxsulot, bozor iqtisodiyoti, aylanma (oborot).

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi o’z iqtisodiyotini jadal rivojlantish uchun kuchli potentsialga ega. Mamlakatning yer qa’rida Mtndeleyev jadvalining deyarli barcha elementlari juda ko’p miqdorda bor, iqlim sharoitlari juda qulay, boy darajada malakali ishchi kuchi resurslariga, rivojlangan tnfrastruktura vz boshqa zaruriy sharoitlarga ega. Ammo oxirgi paytlarda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi lozim bo’lgan “o’z-o’zini moliyalashtirish” tamoyili asosida emas, balki tashqi qarzlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Bunday amaliyotning davom etishi mumkin emas, aks holda iqtisodiyotimiz defoltga uchrashi mumkin.

Bunday muammoni hal qilishda yetakchi rolni soliq siyosatini takomillashtirish o’ynaydi.

Adabiyotlar sharxi.

O’zbekiston Respublikasida xozirgi paytgacha soliqlarning iqtisodiyotni rivolantish uchun moliyaviy asos yaratishi masalalari yetarli darajada o’rganib chiqilgan, ammo 2018 yilda qabul qilingan Soliqqa tortishning yangi kontseptsiyasi va u asosida qabul qilingan Soliq Kodeksining yangi taxririda qabul qilingan ayrim qoidalar

soliqlarning iqtisodiyotni rivojlantirishni rag’batlantirish tamoyili talablariga zid kelishi muammolari nuqtayi nazaridan o’rganilmagan.

Metodologiya va qo’llanilgan tadqiqot usullari

Yangi Soliq konsepsiysi amal qilayotgan sharoitda soliqqa tortishning maviud muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida maqola oldiga amaldagi soliq Kontseptsiyasini tanqidiy tahlil qilish orqali uning iqtisodiyotning rivojlanishiga to’siq bo’layotgan jixatlarini aniqlab, bartaraf etishni asoslab berish;

Ushbu maqolada tadqiqot qilishning guruxlash, solishtirish va umumlashtirish statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil

Ma'lumki iqtisodiyotni rivojlantirish kuchli moliyaviy asosni talab qiladi. Bunday asosni mustaqil mamlakat hech kimga qaram bo'lmadan o'zini - o'zi moliyashtirish qobiliyatiga ega bo'lishini talab etadi. Bunday asosni samarali soliq siyosatini amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Ammo, oxirgi yillarda iqtisodiyotimiz rivojlantirish uchun zarur bo'lgan maliyaviy mablag'lar asosan strategik axamiyatga ega bo'lgan xomashyo (oltin) sotish va tashqi qarzlar hisobiga oshib bormqda. Natijada 2016 yilda byudjet daromadlari tarkibida soliq tushumlai 94 foizdan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 79,6 foizgacha pasaygan va hozir shu tendentsiya davom etmoqda. Shu davrda O'zbekistonning tashqi qarzi 2017 yildagi 11,5 milliard dollardan 2025 yil may holatiga deyarli 2 marta oshgan va 42,2 milliard dollarga tenglashgan.

Byudjetga tushumlar strukturasini normallashtirish va tashqi qarzlarning ulushini pasaytirish maqsadida biz soliq siyosatini takomillashtirish soxasasida faqat bittagina, ya'ni jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i bo'yicha yagona stavka(12%) li usulidan 5 pog'anali (progressiv) stavkaga o'tish xaqida taklif kiritmoqchimiz:

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidan soliq stavkalarning asosan to'rt turi amal qiladi. Bular: proportional, progressiv, nolli va regressiv soliq stavkalaridir.

Ular ichida progressiv soliq stavkalarini qo'llanilganda daromad, ya'ni soliqqa tortish obyekti ko'payib borishi bilan soliq stavkasi ham yonma-yon o'sib boradi. Bu soliq qonunchiligidan faqat fuqarolarning daromad solig'ida qo'llaniladi va fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan.

Progressiv soliq stavkalarining bu xususiyatlarini e'tiborga olib va

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xozirgi holatidan kelib chiqibb, jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i bo'yicha xozir amalda bo'lgan yagona (12 foizli) stavkasidan 5 pog'onlik progressiv soliq stavkalariga o'tishni taklif qilamiz. Bunda quyidagicha soliqqa tortish stavkalarini qo'lllash ko'zda tutiladi (oylik minimal ish xaqiga nisbatan):

- 5 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilarini - soliqdan ozod etish;
- 5 minimal ish xaqi+1 so'mdan 10 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar - 7 foizli stavkada soliq olish;
- 10 minimal ish xaqi+1 so'mdan 15 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar - 12 foizli stavkada soliq olish;
- 15 minimal ish xaqi+1 so'mdan 20 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar - 16 foizli stavkada soliq olish;
- 20 minimal ish xaqidan ko'p daromad oluvchilar - 22 foizli stavkada soliq olish.

Fuqarolarning daromadidan olinadigan soliqning progressiv soliq stavkalariga o'tish bizning xisob-kitoblarimizga qaraganda, agar Toshkent shaxrida

yashovchilarning 0,5 foizini (15 ming kishi) oyiga 500 mln.so'm va undan ko'p daromad oluvchilar tashkil qiladi deb xisoblask faqat Toshkent shaxrining o'zida:

Yagona 12 foizli stavka bo'yicha xar oyda $15000 \times (500000000 \times 12\%)$
= 900.000.000.000 som daromad solig'i to'laydilar.

Biz taklif qilayotgan usulda:

- 5 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilarni - soliqdan ozod etiladi;
- 5 minimal ish xaqi+1 so'mdan 10 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar -
7 foizli stavkada $15000 \times (5 \times 375000 \times 7\%) = 1.968.750.000$ so'm soliq to'laydilar;

- 10 minimal ish xaqi+1 so'mdan 15 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar
- 12 foizli stavkada $15000 \times (5 \times 375000 \times 12\%) = 3.375.000.000$ so'm soliq to'laydilar;
- 15 minimal ish xaqi+1 so'mdan 20 minimal ish xaqigacha daromad oluvchilar
- 16 foizli stavkada $15000 \times (5 \times 375000 \times 16\%) =$

4.500.000.000 so'm soliq to'laydilar. Qolgan summa: $(15000 \times 500.000.000) - (1968750000 + 3375000000 + 4500000000) =$

$7.500.000.000.000 - 9843750000000 = 6.515.625.000.000$ so'mdan:

$6515625000000 \times 22\% = 1.433.437.500.000$ so.m soliq to'laydilar.

Shunday qilib, agar O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning progressiv soliq stavkalariga o'tilsa,

mamlakatimiz davlat byudjetiga xar oyda boylar faqat Toshkent shaxrining o'zida ja'mi $1968750000 + 3375000000 + 4500000000 + 1433437500000 =$

$1.443.281.250.000$ so'm soliq to'laydi va soliq to'lovchilar hisobida xar oyda $7.500.000.000.000 - 1.143.281.250.000 = 6.056.718.750.000$ so'm va xarbir kishi xisobida $6.056.718.750.000 : 15000 = 403781250$ so'm sof daromad qoladi.

Xulosa qilib aytganda agar O'zbekiston Respublikasida pogressiv soliq stavkalari tizimiga o'tilsa, xar oyda hechqanday qo'shimcha xarajatlarsiz davlat byudjetiga qo'shimcha ravishda

$1.443.281.250.000 - 900.000.000.000 = 543.281.250.000$ so'm soliq tushumlari tushardi, bir moliya yilda esa $543281250000 \times 12oy =$

6519375000000 , ya'ni 6,5 trilliondan ko'proq soliq tushumlari tushgan bo'lar edi.

Xulosa:

Shunday qilib, yuqorida iqtisodiyotimizning rivojlanishi va xslqimiz farovonligini oshirishga moddiy asos yaratuvchi va o'z-o'zini moliyalashtirish hamda tashqi qarzlarni kamaytirishga imkon beruvchi soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha kiritgan taklifimiz amalga oshsa mamlakatimiz iqtisyotini rivojlantirishga tashqi qarzlarsiz erishishimizga erishgan bo'lar edik.

Bundan 7-8 yil oldin defoltga uchragan Gretsiya biz yuqorida taklif etgan tadbir yordamida defoltdan chiqib ketgan edi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin sanktsiyalardan qiynalib qolgan byudjetiga yordam berish maqsadida 2024 yilning 14 iyulkuni

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi'i bo'yicha progressiv shkalaga o'tish to'g'risjdagi qonunga imzo chekkanligini va shu yo'l bilan iqtisodiy barqarorlikka erishishga hissa qo'shgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Kontseptsiyasi to'g'risida"gi Farmoni;
3. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma / U.To'lakov, O.Maxmudov. 2021 yil, – 365 bet.
4. Налоговое право. Учебник (отв. ред. Е.Ю. Грачева, О.В. Болтинова) (3- е изд., перераб. и доп.). - "Проспект", 2020 г.

Axborot manbalari:

6. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı.
7. www.mf.uz – O'zbekiston Moliya vazirligi rasmiy sayti.
8. www.soliq.uz – O'zbekiston Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti
9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti.